



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## **XAYRIDDIN SULTONNING “BOBURIYNOMA” ASARIDA BOBURGA XOS TARIXIY LEKSEMALARNING SAYQALLANISHI**

**Suyunova Dilnozaxon Ilhomjon qizi**  
Mustaqil tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Maqolada Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” ma’rifiy romanida Boburga xos tarixiy leksikaning badiiy sayqallanishi lingvopoetik yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida Boburning “Boburnoma”-sidan keltirilgan parcha hamda “Boburiynoma” matnidagi intertekstual qatlam tanlab olindi. Leksik-semantik tasnif, funksional-uslubiy tahlil, hamda qiyosiy metod yordamida tarixiy soʻz qatlamining badiiy matnda “semantik”dan “metasemiotik” bosqichga oʻtish mexanizmlari koʻrsatildi. Natijada “Boburiynoma”da tarixiy leksika nafaqat “davr belgisi” sifatida, balki personaj va muallif nutqining jonlantiruvchi badiiy resurs sifatida ishlatilishi asoslandi.

**Kalit soʻzlar:** tarixiy leksika, arxaizm, istorizm, lingvopoetika, toponim, badiiy sayqallanish.

## **ОТШЛИФОВКА ИСТОРИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ БАБУРА, В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХАЙРИДДИНА СУЛТАНА «БОБУРИЙ-НАМА»**

**Суюнова Дилнозахон Илхомжон кизи**  
Независимый исследователь

### **Аннотация**

В статье рассматривается художественная «огранка» исторической лексики в просветительском романе Хайрiddin Sul-ton “Boburiynoma”, восходящей к словарю и речевым моделям “Baburnama”. На материале фрагмента “Baburnama” и текстовых эпизодов “Boburiynoma” проводится лексико-семантический и функционально-стилистический анализ. Обосновывается, что историческая лексика в “Boburiynoma” функционирует как средство аутентичности и как поэтический механизм, формирующий хронотоп и эмоционально-ценностные смыслы .

**Ключевые слова:** историческая лексика, архаизмы, историзмы, лингвопоэтика, , топонимы, стилизация.

## **REFINEMENT OF HISTORICAL LEXEMES CHARACTERISTIC OF BABUR IN KHAYRIDDIN SULTAN’S WORK “BABURIY-NAMA”**

**Suyunova Dilnozaxon Ilhomjon qizi**  
Independent Researcher

### **Abstract**

This paper explores the artistic “polishing” of historical vocabulary in Xayriddin Sul-ton’s educational novel “Boburiynoma”, focusing on the recontextualisation of Babur’s lexical layer known from “Baburnama”. Using a selected “Baburnama” excerpt and relevant “Boburiynoma” passages, the study applies lexical-semantic classification and functional stylistic analysis within a linguopoetic framework. The findings show that historical lexicon in “Boburiynoma” acts not only as a marker of epochal authenticity but also as a poetic device that shapes chronotope and emotional meanings.

**Keywords:** historical lexicon, archaism, historicism, linguopoetics, toponyms, stylisation.

Boburning “Boburnoma”si jahon miqyosida yuksak baholangan avtobiografik memuar asar bo‘lib, unda tarixiy voqealar bilan bir qatorda geografiya, tabiat va jamiyatga doir kuzatuvlar ham keng yoritiladi. Mazkur asar Chig‘atoy tilida yozilgani va keyinchalik fors tiliga tarjima qilinib, ko‘p bor ko‘chirilgani hamda tasviriy san‘at namunalari bilan bezatilgani haqida Library of Congress va University of Pennsylvania fond-tavsiflarida alohida qayd etiladi. [3:100] Shuning uchun ham “Boburnoma” tili, ayniqsa undagi tarixiy leksika badiiy matn tilini tadqiq etishda yirik manba bo‘lib kelmoqda.

Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” asari 1997-yilda ma’rifiy roman sifatida nashr etilgani va kitobxonlar e’tiborini tortgani haqidagi ma’lumotlar kitob tavsiflarida ham uchraydi; jumladan, kitob savdosi va kutubxona tavsiyanomalarida roman dastlab 1997- yilda chop etilgani, muallif esa boburiylar izlari bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etgani ta’kidlanadi. Adabiy tanqid maydonida esa “Boburiynoma”ning salmoqli asar ekani, biroq yetarli ilmiy tahlil-tadqiq etilmagan jihatlari borligi qayd qilingan. Shu nuqtayi nazardan, “Boburiynoma”da “Boburnoma”ga xos tarixiy so‘z qatlamining qay tarzda badiiy tizimga singdirilishi, qanday poetik yuk ko‘tarishi masalasi lingvopoetik tahlil uchun dolzarbdir. [6:95]

Lingvopoetika badiiy matn til birliklarining nafaqat nominativ-ma’no qatlamini, balki ularning badiiy-estetik vazifasi, ya’ni ma’no usti (metasemiotik) yukini ham tahlil qilishni nazarda tutadi. O‘zbek tilshunosligi doirasida badiiy matnga tatbiq etiladigan tahlilning ikki bosqichi – semantik va metasemiotik daraja – alohida ko‘rsatib beriladi. Mazkur qarash, “Boburnoma”dan olingan tarixiy so‘zlarning “Boburiynoma”da qaysi nuqtada oddiy “atash” vazifasidan chiqib, poetik vazifaga o‘tishini aniqlash uchun metodologik zamin yaratadi. Tilning poetik funksiyasi haqidagi yondashuvda Roman Jakobson “xabar (message)ning o‘zi”ga yo‘naltirilgan e’tibor, “xabarni o‘zi uchun” markazga chiqarish poetik vazifasini belgilashini asoslaydi. Bunday nazariya tarixiy leksikani ham faqat tarixiy ma’lumot tashuvchisi sifatida emas, balki badiiy xabar qurilishining ichki “ritm-semantik” detali sifatida ko‘rishga imkon beradi [2:69].

“Tarixiy leksika” tushunchasi amaliy tahlilda ikki asosiy qatlamni ajratishni talab qiladi: arxaizm va istorizm. “Boburnoma” tilida bu ikki qatlam ko‘pincha qo‘shma holatda uchraydi: bir tomonda “kundalik” turkiy so‘zlar (tog‘, yaylov, qovun, uzum), ikkinchi tomonda esa arabcha-forscha kelib chiqishi ijtimoiy-madaniy atamalar va uslubiy shakllar (vofir, farovon, lafz, rasm, tabarruk, mashhur). Misollarda “ko‘p qatlamlilik” yaqqol ko‘rinadi, bu holat ayrim tadqiqotlarda “Boburnoma” leksik tarkibining turkiy, arabiy, forsiy qatlamlar bilan tavsiflanishi orqali ham ilmiy jihatdan ta’kidlangan.

Metod sifatida uch yo‘nalish uyg‘unlashtirildi:

leksik-semantik guruhlash (toponim/hidronim, agro-botanik, ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy, baholovchi);

funksional-uslubiy tahlil (so‘zning matndagi vazifasi: xronotop, autentiklik, emotsional ekspressiya);

qiyosiy tahlil (birliklarning “Boburnoma”dagi tabiiy ishlatilishi va “Boburiynoma”dagi uslub va semantikaning qayta qurilishi). Bu ketma-ketlik lingvopoetik tahlilning semantik va metasemiotik bosqichlarini farqlash tamoyiliga tayangan. [6:97]

Qiyosiy birliklarni tanlashda ikki asosiy mezon qo‘llangan: bevosita muvofiqlik, ya’ni aynan bir nomning takror qo‘llanishi (qovun, uzum, anor) va semantik maydon jihatidan muvofiqlik, bunda jangal, to‘qay, o‘rmon kabi tabiatga oid nomlar hamda, rasm, odat singari ijtimoiy mazmundagi birliklar nazarda tutiladi. Mazkur yondashuv “Boburnoma”dagi lug‘aviy boylikni “Boburiynoma”dagi unga uyg‘un tarixiy-badiiy namunalardan bilan qiyosan bog‘lash imkonini yaratadi.

“Boburnoma”da geografik va etnografik tasvirga oid parchalar asar tarkibida alohida mazmuniy qatlam sifatida ajralib turadi, bu holat ilmiy manbalarda ham e’tirof etilgan. Mazkur qatlam geografik muhit, iqlim xususiyatlari, o’simlik va hayvonot olami, shuningdek, shahar madaniyati bilan bog‘liq tasvirlarni qamrab oladi. Matnda uchraydigan “girdo-girdi tog‘”, “Farg‘ona viloyati”, “Andijon tarafi”, “Samarqand va Buxoro”, “Movarounnahr” kabi birliklar makon-zamon yaxlitligini yaqqol namoyon etadi. Ayni paytda, “oshlig‘i vofir, mevasi farovon”, “bisyor latif”, “yaxshi” singari baholovchi birliklar bayonning oddiy axborot shaklidan badiiy tasvir darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy qatlamga oid leksik birliklar davr ruhini ifodalash bilan birga, Boburning kuzatuvchan, mushohadakor va baholovchi muallif sifatidagi qiyofasini ham yoritadi

Qiyosiy tahlil uchun “Boburiynoma”dan keltirilgan birinchi turdagi dalil joy nomlari vositasida xotira va “ota yurt” ma’nosining kuchaytirilishida namoyon bo‘ladi. Roman boshlarida muallif-hikoyachining ilmiy safar taassurotlari ifodalanar ekan, “muborak marqad”dan tuproq olib, uni shoirning “ota yurti”ga eltish motivi alohida mazmuniy yuk kasb etadi: “...tuproq olib shoirning ota yurti Andijonga keltirdik” [9:7]. Mazkur jumlada “Andijon” shunchaki joy nomi emas, balki badiiy matnda muqaddas makon timsoliga aylanadi. “Ziyorat – tavof – marqad – tuproq” ma’no zanjiri diniy-madaniy hamda tarixiy qatlamga oid birliklar orqali kuchli hissiy-ta’sirchan muhitni yuzaga keltiradi. Lingvopoetik tahlilda bunday holatda joy nomi ramziy ma’no kasb etib, “xotira belgisi” vazifasini bajaradi [6:96].

Ikkinchi turdagi dalil tarixiy makon va zamonning afsonaviy-tarixiy ohangda ifodalanishida namoyon bo‘ladi. “Boburiynoma”ning dramatik-sahnaviy bayonga yaqin qismida, xususan, roviy nutqida, joy nomlari tarixiy romanga xos kirish tasvirini hosil qiluvchi birliklar sifatida qo‘llanadi: “Qadim o‘tgan zamonda, Farg‘ona degan tomonda, ko‘hna shahar Andijonda...” [9:10]. Mazkur misolda “Farg‘ona – Andijon” joy nomlari birikmasi “qadim zamon” ifodasi bilan mazmunan bog‘lanib, o‘quvchi ongida tarixiy voqelikni jonli tasavvur etish imkonini beradi. Roviyo ovozi, azon sadosi, bozor manzaralari esa bu tarixiy sahnaning ko‘rish va eshitish orqali ta’sirchan idrok etilishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, “Boburnoma”dagi geografik aniqlik “Boburiynoma”da oddiy xabar beruvchi birlik bo‘lib qolmay, badiiy qurilishning muhim tarkibiy vositasiga aylanadi.

“Boburnoma”dan olingan mazkur parchada dehqonchilik va o‘simlik dunyosiga oid so‘zlar asosiy o‘rin egallaydi: “oshlig‘”, “meva”, “qovun”, “uzum”, “poliz”, “anor”, “zardolu”, “binafsha”, “tobulg‘u”. Ushbu birliklar, avvalo, xo‘jalik hayotining real manzarasini tiklasa, ayni paytda makonning barakadorligi va serhosilligini ifodalovchi baholovchi modelni ham yuzaga keltiradi. Bu model, asosan, “vofir”, “farovon”, “yaxshi” kabi baholovchi birliklar vositasida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mazkur ifoda modeli “Boburiynoma”da to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtibosga yaqin matnlararo bog‘lanish shaklida ham kuzatiladi. Jumladan, roman matnida, Buxoro haqidagi tarixiy tavsif quyidagicha beriladi: “Buxorog‘a suv yetmas. Uzumi va qovuni, va olmasi, va anori, balki jami’ mevasi xo‘b bo‘lur” [8:61]. Bu jumladagi sanash usuli – “uzum, qovun, olma, anor” tarzidagi uyushiq birliklar tizimi – “Boburnoma”dagi “qovun va uzumi yaxshi bo‘lur” tipidagi tuzilmalar bilan vazifaviy jihatdan yaqinlik kasb etadi. Chunki har ikki matnda ham makonning ne’mati, hosildorligi va tabiiy boyligi badiiy usulda ifodalanadi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan, sanashga asoslangan ohang va ritm Roman Yakobson ta’kidlagan poetik vazifaning, ya’ni nutqning diqqati xabarning o‘ziga qaratilishi tamoyilini kuchaytiradi. Shu bois o‘quvchi faqat mazmundan emas, balki sanash tartibi va uning ohangdorligidan ham estetik zavq oladi; “baraka” haqidagi tasavvur esa aynan ritmik uyushuv orqali yuzaga keladi [2: 65].

Biroq “Boburiynoma”dagi tarixiy qatlamga oid so‘zlarning badiiy sayqallanishi faqat qadimiy iqtiboslar bilan cheklanmaydi. Uchinchi turdagi dalil tarixiy qatlamga mansub

soʻzlarning hissiy jihatdan qayta maʼnolanishida, yaʼni soʻzning “xotira ogʻrigʻi”ni ifodalovchi badiiy belgiga aylanishida koʻrinadi. Romanda vatandan uzilish kayfiyati tasvirida “qovun – uzum – gul” uchligi sogʻinch timsoli sifatida namoyon boʻladi: “Kindik qoni tomgan yurtining qovunlari, uzumlari va gullarini...” [9:296]. Bu oʻrinda dehqonchilik va oʻsimlik olamiga oid birliklar oddiy predmet nomi boʻlib qolmay, “vatan hidi”ni ifodalovchi badiiy tafsilotga aylanadi. Aynan shu nuqtada tarixiy qatlamga oid soʻzlar ramziy maʼno bosqichida ishlay boshlaydi.

“Boburnoma”dan olingan quyidagi birliklar yana bir muhim qatlamni koʻrsatadi: “rud”, “mushrif”, “bogʻ”, “mahallot” kabi shaharsozlik va suv nomlariga oid birliklar. “Boburnoma” uslubida suv nomlari makonni nihoyatda aniq belgilashga xizmat qiladi. Shunga oʻxshash ifoda modeli “Boburiynoma” matnida ham uchraydi: “Koʻhak suyi shimolidin oqar... Darham suyi derlar” [8:61]. Bu misolda “suv suyi”, “rud”, “derlar”, “bulgʻay” kabi qadimgi shakllar tarixiy til manzarasini tiklaydi. Roman tarkibida bunday iqtiboslar ishonarlilik taassurotini kuchaytirib, oʻquvchini Bobur uslubiga yaqinlashtiradi.

“Boburnoma”dan olingan ijtimoiy-madaniy va diniy birliklar – “masjid”, “darvesh”, “tabarruklik”, “rasm”, “lafz”, “qalam” – asardagi muhim lugʻaviy qatlamni tashkil etadi. “Boburiynoma”da ham shunga yaqin maʼno zanjirlari kuzatiladi: “maqbara”, “tavof”, “muborak marqad” kabi arabcha-forscha qatlamga mansub birliklar tarixiy-madaniy koʻrinish yaratadi. Natijada tarixiy qatlamga oid soʻzlar roman matnida ikki vazifani birgalikda bajaradi: birinchidan, davr va muhitni belgilaydi, yaʼni tarixiylikni yuzaga keltiradi; ikkinchidan, muallif munosabatini kuchaytiradi, yaʼni muqaddaslik, ehtirom va qadriyat mazmunini ifodalaydi.

Boburga xos tarixiy qatlamga oid soʻzlarning “Boburiynoma”dagi eng kuchli poetiklashgan qatlamlaridan biri ijtimoiy-siyosiy nomlar hamda harbiy atamalarning dramatik harakat bilan uygʻunlashuvida koʻrinadi. Romanda Movarounnahr manzarasi tasvirida tarixiy elat nomlari va siyosiy nomlar sanogʻi oʻquvchi ongida tarixiy tanglikni kuchaytiradi: “Movarounnahrda bir-biri bilan qirpichoq boʻlib yetgan chigʻatoy, temuriy, oʻzbek sultonlari...” [9:25]. Bu jumlada “chigʻatoy”, “temuriy”, “oʻzbek” birliklari tarixiy-haqiqiy qatlamni bersa, “qirpichoq boʻlib yetgan” kabi obrazli birikma badiiy baholashni yanada kuchaytiradi. Shu tariqa, tarixiy qatlamga oid soʻzlar oddiy tarixiy maʼlumot vositasi boʻlib qolmay, toʻqnashuvni badiylashtiruvchi vositaga ham aylanadi.

“Boburnoma”da tarixiy qatlamga oid soʻzlar koʻproq tabiiy, yaʼni muallifning bevosita kuzatuviga tayangan holda qoʻllansa, “Boburiynoma”da ular tanlab olingan, muayyan oʻringa joylashtirilgan va poetik ohang bilan sayqallangan holda namoyon boʻladi. Bu badiiy sayqallanish uch asosiy koʻrinishda yuz beradi: birinchisi – iqtibos va uslubiy taqlid, yaʼni qadimgi shakllarning matnga kiritilishi; ikkinchisi – tarixiy nomning qadriyat belgisiga aylanishi, masalan, Andijonning “ota yurt” timsoli sifatida talqin qilinishi; uchinchisi esa predmet nomining hissiy tafsilotga aylanishidir, yaʼni “qovun – uzum – gul” kabi leksik birliklarning sogʻinch maʼnosini ifodalashi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Abdullaeva V.Q. Yusuf Xos Hojibning Qutadgʻu bilig asarining oʻrganilishi hamda asardagi somatik frazeologik birliklarning qoʻllanishi // Qoʻqon universiteti xabarnomasi. Ilmiy-elektron jurnal. 2023. – № 3. – B. 174–179.
2. Jakobson R. Linguistics and Poetics. – London: Harvard University Press, 1987. – 62 – 93 p.
3. Kenzhalin Q., Tansykbay A., Espekova L. Semantics of the word “Qazaq” in the “Baburnama” // Turkic Studies Journal. – 2024.
4. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 56 б.
5. Маматов А.Э. Проблемы лексикофразеологической нормы в современном узбекском

- литературном языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 47 с.
6. Musulmanova N. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari. O‘zbekiston: til va madaniyat. 2024. – B. 90-97.
  7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 679.
  8. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 416.
  9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 566.